

**O'ZBEK TILINING XALQARO MIQYOSDAGI O'RNI VA NUFUZI HAQIDA****Xayrullayev Muxriddin**

Buxoro davlat universitetining Pedagogika instituti talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6589586>

Ma'lumotlarga ko'ra, dunyoda insonlar so'zlashadigan 8 ming tildan bugungi kunda 6 mingtasi saqlanib qolgan. Shundan 90 foizi keng miqyosda foydalanilmaydi. O'zbekiston - ko'p millatli davlat. Mamlakatimizda 130 dan ortiq millat va elat vakillari istiqomat qiladi. Yurtimiz aholisining aksariyati (80 foizdan ortig'i) o'zbek tilida so'zlashadi. Shuningdek, tojik, qozoq, qoraqalpoq, qirg'iz, turkman, rus va boshqa tillarda so'zlashuvchi vatandoshlar ham bor. Bugungi kunda ularning o'zaro tinch-totuv yashashi, ona tilini saqlab qolishi va rivojlantirishi uchun barcha imkoniyatlar yaratilgan. Qayd etish kerak, ona tilimiz – o'zbek tili turkiy tillar oilasiga mansub eng yirik tillardan biridir. Dunyo bo'yicha 50 millionga yaqin kishi shu tilda so'zlashadi. Mustabid tuzum davrida millat ruhi, g'ururi bo'lmish o'zbek tilining ahamiyatini susaytirishga qaratilgan urinishlar bo'ldi. Shunga qaramasdan xalqimiz o'z ona tilini saqlab qoldi. 1989-yil 21-oktyabr kuni qabul qilingan «Davlat tili to'g'risida»gi qonunga muvofiq, o'zbek tili davlat tili, deb e'lon qilindi. Ushbu qonun bilan o'zbek tili davlat tili maqomini olgan bo'lsa-da, mamlakatimizda yashovchi millat va elatlarning o'z ona tilida so'zlashish huquqi konstitutsiya bilan mustahkamlangan. Fuqarolar millatlararo muomala tilini o'z xohishlariga ko'ra tanlash huquqiga ega ekanı belgilangan. Bu yurtimizda millatlararo hamjihatlik, do'stlik va birodarlik ruhi ustuvorligini anglatadi. Ushbu tarixiy sanadan o'ttiz yil o'tib bu borada yana bir qutlug' qadam qo'yildi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 2019-yil 21-oktyabr kuni «O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi farmonga imzo chekdi. Unga binoan 21-oktyabr sanasi yurtimizda «O'zbek tili bayrami kuni» deb e'lon qilindi. Ushbu ezgu g'oyani ona tilimiz fidoyilar, butun xalqimiz katta xursandchilik bilan qarshi oldi. Bundan tashqari har bir vazirlik va tashkilotlarda davlat tili masalalari bo'yicha alohida maslahatchi lavozimi joriy etildi. Ular ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish, davlat tili to'g'risidagi qonunga rioya etilishini ta'minlash masalalari bo'yicha javobgar hisoblanadi. O'zbek tili siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-ma'rifiy jabhalarda faol qo'llanib, turdi xalqaro



anjuman va konferensiyalarda baralla yangramoqda. Xorijiy mamlakatlarda tilimizga e'tibor va uni o'rganishga qiziqish kuchaymoqda. Davlat tilining xalqaro miqyosdagi o'rni va nufuzi, uning boshqa tillar bilan aloqalari istiqbollarini belgilash, xorijda istiqomat qiluvchi vatandoshlar va o'zbek tilini o'rganish istagida bo'lgan chet el fuqarolari uchun o'zbek tili darsliklari va elektron dasturlarni ishlab chiqish, ularni keng miqyosda tarqatish, o'zbek tilini o'rgatish bo'yicha maxsus kurslar tashkil etilmoqda.

Xususan, o'zbek tilining xalqaro maydondagi obro'-e'tiborini oshirish borasida Tashqi ishlar vazirligi oldiga ham qator vazifalar qo'yilgan.

Bugun ushbu vazifalar ijrosi doirasida xalqaro maydonda o'zbek tili va adabiyotini targ'ib etish choralari amalga oshirilmoqda. Xususan, 50 dan ortiq diplomatik vakolatxonalarimiz xorijda «O'zbek tili do'stlari» klublarini tashkil etish borasida izchil sa'y-harakatlar olib bormoqda. Mazkur klublarda o'zbek tilini o'rganishni xohlovchi chet elliklar qamrab olinmoqda. Ayni paytda ushbu klublar faoliyatini yanada takomillashtirish va o'quvchilar sonini oshirish bo'yicha targ'ibot ishlari olib borilyapti.

Bundan tashqari, mamlakatimizning chel eldag'i diplomatik vakolatxonalar ko'magida o'zbek xalqining milliy an'analari, urf-odat va bayramlari, buyuk ajdodlarimiz hayoti va ijodiga bag'ishlangan tadbirlar o'tkazilmoqda.

Jumladan, O'zbekiston Respublikasining Mozori-Sharif shahridagi konsulxonasi tomonidan Afg'onistonda o'zbek tilining xalqaro nufuzini oshirish va uni targ'ib qilish borasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirildi. Ma'lumki, Afg'onistonda ham o'zbek millatiga mansub ko'p sonli aholi istiqomat qiladi. Ular o'z ona tillarini saqlab qolish istagida. Shu bois konsulxona tomonidan o'zbek tili va adabiyotiga bag'ishlab o'tkaziladigan tadbirlarda faol ishtirok etib kelmoqda. O'tgan davr mobaynida konsulxona Balx, Faryob, Juzjon, Bag'lon, Tahor, Sari-Pul hududlaridagi oliy ta'lim muassasalaridagi filologiya fakultetlari qoshida tashkil etilgan o'zbek tili va adabiyoti kafedralari bilan yaqindan hamkorlik aloqalarini o'rnatdi. Hamkorlikda o'zbek tili va adabiyoti bo'yicha o'qituvchi -mutaxassislarini tayyorlash uchun zarur darsliklar, metodik qo'llanmalar, mashhur o'zbek adiblari va shoirlarining asarlari (kitob shaklida va elektron ko'rinishda), jami 400 ga yaqin adabiyot davlatimiz nomidan ularga taqdim etildi. Balx, Samangon, Juzjon va Faryob viloyatlaridagi kam ta'minlangan afg'onistonlik o'zbek o'quvchilariga



esa lotin grafikasiga asoslangan o'zbek tilida chop etilgan 1 ming 595 ta bolalar adabiyotiga oid kitob, 748 ta darslik tarqatildi. Shu bilan birga, konsulxona "Rido" radiostansiyasining o'zbek tilidagi eshittirishlarini shimoliy Afg'onistonning o'zbeklar yashaydigan Tahor va Qunduz viloyatlariga uzatish bo'yicha kelishuvga erishdi.

Mazkur radiostansiya o'z to'lqinlarida O'zbekiston ijtimoiy-iqtisodiy hayoti, o'zbek xalqining tili, tarixi, madaniyati, urf-odatlari va diniy-ma'rifiy qadriyatlariga oid turkum eshittirishlarni berib kelmoqda. Ayni paytda Balx, Tahor, Juzjon va Faryob davlat universitetlari huzurida faoliyat olib borayotgan o'zbek tili va adabiyoti kafedralari mamlakatimiz konsulxonasi tomonidan taqdim etilgan o'zbek tili va adabiyoti darsliklari hamda buyuk o'zbek adiblari asarlari asosida o'zbek milliy adabiyoti kutubxonasini tashkil etish taraddudida. Shu bilan birga, konsulxona joriy yilda o'zbek adabiyotining yorqin namoyondalari Fitrat, Cho'lpon, A.Qodiriy, A.Sog'uniy, Oybek, A.Oripov, E.Vohidov hamda boshqa adiblar qalamiga mansub asarlarni eski o'zbek yozuviga (arab grafikasi) o'girish bo'yicha ish olib bormoqda. O'zbekiston Respublikasining Pokiston Islom Respublikasidagi elchixonasi tomonidan ham o'zbek tilini keng targ'ib qilish maqsadida keng ko'lamli ishlar bajarilmoqda. Jumladan, "O'zbek tilining davlat tili sifatida qo'llanilishini kengaytirish, rivojlantirish, ilmiy tadqiqodlarni qo'llab-quvvatlash, o'qitish metodikasini takomillashtirish bo'yicha 2019-2020 yillarga mo'ljallangan chora-tadbirlar dasturi" ijrosini ta'minlash maqsadida tizimli ishlar olib borilmoqda. Ta'kidlash joiz, Pokistonda istiqomat qilayotgan o'zbek tili mutaxassislari, tarjimonlar, o'zbek tili va adabiyoti ixlosmandlari bilan ona tilimizning xalqaro nufuzi, jozibadorligi va imkoniyatlari haqida suhbatlar elchixona tomonidan muntazam tashkil etilib, Pokiston ommaviy axborot vositalarida muntazam yoritilmoqda. Joriy yil buyuk alloma, mutafakir va davlat arbobi Zahiriddin Muhammad Boburning tavallud kuniga bag'ishlab "O'zbekiston pokistonlik bolalar nigohida" ko'rik-tanlovi muvaffaqiyatli o'tkazildi. Mazkur tanlov yosh pokistonliklar o'rtasida nafaqat katta qiziqish uyg'otdi, balki ular O'zbekiston haqida kitob va jurnallar, internet sahifalari va ommaviy axborot vositalari orqali izlanishga, tanlov sabab bizning urf-odat va madaniyatimiz, me'moriy obidalarimiz, tariximiz haqida keng tasavvurga ega bo'ldi. Unda Pokistonning deyarli barcha yirik shaharlaridan yuzdan ortiq yoshlar ishtiroy etdi. Shuningdek, elchixona qoshida "O'zbek tili va tarixi" to'garagi faoliyat yuritib kelmoqda. To'garak faoliyati orqali chet davlatda ulg'ayayotgan O'zbekiston yoshlarida Vatanga



bo'lgan muhabbat, g'urur va iftixor, o'zbek tiliga bo'lgan hurmat va sadoqatni yanada mustahkamlash maqsad qilingan. Ona tilimizning nufuzini xalqaro maydonda oshirish borasida mamlakatimizning Turkiyadagi elchixonasi tomonidan ham tizimli ishlar yo'lga qo'yilgan. Mazkur vazifalar ijrosi doirasida Turkiyaning "Turk tili tashkiloti" (Turk Dil Kurumu) homiyligida o'zbekistonlik baxshi Ergash Jumanbulbul o'g'lining "Dalli" dostoni turk va o'zbek tillarida chop etildi. O'zbek xalqining qadim tarixidan so'zlaguvchi ushbu kitob Anqara kutubxonalari va oliy ta'lim muassasalariga tarqatildi. Doston folklorshunos olim Jabbor Eshonqul tomonidan nashrga tayyorlangan. Dostonni turk tiliga anqaralik mutaxassis Dilek Sezar tarjima qilgan. Ikki tilda chop etilgan mazkur o'zbek xalq dostoni turkiyalik kitobxonlar tomonidan katta qiziqish bilan qarshi olindi. O'zbek tilini tadqiq etish va rivojlantirishga qaratilgan sa'y-harakatlarni davom ettirish maqsadida qator loyihalar amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasining Qozog'istondagi elchixonasi ham o'z faoliyatini o'zbek tili va adabiyotini xorijda keng targ'ib qilish asosida tashkil etib kelmoqda.

Xususan, o'zbek va qoraqalpoq etnomadaniy markazlari bilan hamkorlikda L.Gumilev nomidagi Yevroosiyo milliy universitetida o'zbek tilining zamonaviy rivojlanishiga bag'ishlangan xalqaro anjuman o'tkazilgani ham fikrimizga misoldir. Ushbu tadbir qo'shni mamlakatda yashaydigan o'zbek tilida so'zlashuvchi aholi tomonidan katta qiziqish bilan kutib olindi. Anjuman dorasida elchixona ko'magida ushbu oliy o'quv yurti qoshida «O'zbek tili do'stlari» klub o'z faoliyatini boshlagani e'lon qilindi.– O'zbek tili va adabiyotining jahon hamjamiyatida tutgan o'rni, xalqaro nufuzi juda yuqori, – deydi Qozog'iston xalqlari Assambleyasi raisi o'rnbosari Sh.Po'latov – Universitetda tashkil etilgan «O'zbek tili do'stlari» klub mamlakat yoshlari o'rtasida o'zbek tilini yanada chuqur o'rgatishga xizmat qiladi.

L.Gumilev nomidagi Yevroosiyo milliy universiteti rahbariyati klubning ushbu universitetda tashkil etilgani ular uchun katta sharaf ekanini qayd etdi.

Muxtasar aytganda, istiqlol yillarida ona tilimizga davlat tili maqomining berilishi orqali xalqimiz ruhi va o'zligi tiklandi. Bugun esa o'zligini tanigan xalq tili xalqaro maydonda tarannum etiladigan beqiyos kuchga aylandi. Mamlakatimizda so'nggi uch yilda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar jarayonida esa o'zbek tilining o'rni va nufuzi tobora ortib, dunyo sari yuzlandi.



Ушбу мақолада ўқув луғатларининг умумий луғатлардан нафақат ҳажми, балки ундаги сўзларнинг танланиш мезонлари, луғат қисмларининг таркиби, жойлашуви – мегаструктураси билан ҳам фарқланиши, синоним ўқув луғатлар луғат мақоласи таркибидаги лексикографик пометалар (турли қисқартмалар, белгилар)га кам ўрин берилганлиги муҳокама қилинади.<sup>1</sup>

This article is dedicated to the research of Adjusted meanings of Moral-spiritual concept defining units in the Uzbek language. And also analyzed the semantic analysis of grammatical shape lexemes of specialized meaning and provide a corresponding recommendation for lexicographical practice in the Uzbek language is one of the actual challenges of linguistics as today's challenge.<sup>2</sup>

Корпус лингвистикасида семантик разметка, унинг теглар тизими, тег категориялари, семантик теглаш муаммолари, кўпмаънолилик ва омонимлик муаммосини ечиш масаласига оид қатор тадқиқотлар вужудга келган.<sup>3</sup>

The article discusses the research methods of Uzbek language syntax. In Uzbek linguistics, syntactic phenomena have been studied in detail since the 1930s, and several syntactic theories have emerged in this regard.<sup>4</sup>

The article examines the first dictionary in the Turkish language Mahmud Kashgaris "Devonu lugotit turk" in terms of a dictionary in accordance with the traditions of world lexicography and argues that it is the first appearance of modern complex dictionaries in the Turkish (Uzbek) language.<sup>5</sup>

<sup>1</sup> Гуландом Мирханова. (2022). СИНОНИМ СЎЗЛАР ЎҚУВ ЛУФАТИНИНГ УМУМИЙ ТУЗИЛИШИ. *Yosh Tadqiqotchi Jurnali*, 1(2), 172–178. Retrieved from <http://2ndsun.uz/index.php/yt/article/view/90>

<sup>2</sup> Gulbahor, T. (2016). Adjusted Meanings of Moral-Spiritual Concept Defining Units. *ANGLISTICUM. Journal of the Association-Institute for English Language and American Studies*, 5(7), 40-45.

<sup>3</sup> Ахмедова, Д. (2020). Семантик разметка тизимида тег групчлари. *Oriental Art and Culture*, (III), 440-444.

<sup>4</sup> Ergashevna, Y. N. (2021). ON METHODS OF RESEARCH OF UZBEK LANGUAGE SYNTAX. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 9(11), 22-28.

<sup>5</sup> Bakhriddinova, B. M. (2020). "DEVONU LUGOTIT TURK" AS A FIRST VIEW OF MODERN COMPLEX EDUCATIONAL DICTIONARIES. *Theoretical & Applied Science*, (4), 981-985.



Now studying scientific heritage, socio-political activities and acquaintance youth charity of our above-stated ancestors is considered one of the main urgent objectives of the modern intellectuals.<sup>6</sup>

This article covers the main place of small business and business in todays market economy. Including scientifically analyzed the development of small business and business, and the legal basis, at this time financially support small business and business, the latter is amended and the rules for this branch of national legislation are added.<sup>7</sup>

Мамлакатимиз тараққиётининг янги босқичида жамият ҳаётининг асосий

негизи бўлмиш оилалар барқарор муҳитини мустаҳкамлаш ва бу масалаларда хотин-қизларнинг ўрни ва аҳамияти ошириш долзарб аҳамият касб этмоқда. Юртимиз аҳолисининг тенг ярмига яқинроғини ташкил этадиган хотин-қизлар жамиятнинг барча соҳаларида самарали фаолият юритмоқда.<sup>8</sup>

In this article are given the importance, role, types of the family in modern society. Its development from ancient times till present is widely described in this article.<sup>9</sup>

The widespread introduction of new pedagogical technologies in teaching students of higher educational institutions and the effective use of innovative technologies are the main support for improving the quality of education.<sup>10</sup>

### Foydalanilgan adabiyotlar:

- Гуландом Мирханова. (2022). СИНОНИМ СЎЗЛАР ЎҚУВ ЛУФАТИНИНГ УМУМИЙ ТУЗИЛИШИ. *Yosh Tadqiqotchi Jurnali*, 1(2), 172–178. Retrieved from <http://2ndsun.uz/index.php/yt/article/view/90>

<sup>6</sup> Tolibjonovich, M. T. (2021). EASTERN RENAISSANCE AND ITS CULTURAL HERITAGE: THE VIEW OF FOREIGN RESEARCHERS. *ResearchJet Journal of Analysis and Inventions*, 2(05), 211-215.

<sup>7</sup> Tolibjonovich, Madumarov T., and Gulomjonov O. R. Ogli. "Lombard Microcredit Organization Its Concept and Its Importance Today." *JournalNX*, vol. 6, no. 10, 2020, pp. 109-111.

<sup>8</sup> Мадумарова Зиёдахон. (2022). ЯНГИЛАНАЁТГАН ЎЗБЕКИСТОНДА ГЕНДЕР МУАММОЛАРИНИ БАРТАРАФ ЭТИШДА АХЛОҚИЙ ҚАДРИЯТЛАРНИНГ ЎРНИ. <https://doi.org/10.5281/zenodo.6569712>

<sup>9</sup> Nasriddinovich, A. A. (2020). THE FEATURES OF APPEARING FAMILY IN MODERN SOCIETY. *European science review*, (3-4), 69-72.

<sup>10</sup> Jamoliddinovich, U. B. (2022). FUNDAMENTALS OF EDUCATION QUALITY IN HIGHER EDUCATION. *INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH* /ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429, 11(01), 149-151.



2. Gulbahor, T. (2016). Adjusted Meanings of Moral-Spiritual Concept Defining Units. ANGLISTICUM. Journal of the Association-Institute for English Language and American Studies, 5(7), 40-45.
3. Ахмедова, Д. (2020). Семантик разметка тизимида тег гурухлари. Oriental Art and Culture, (III), 440-444.
4. Ergashevna, Y. N. (2021). ON METHODS OF RESEARCH OF UZBEK LANGUAGE SYNTAX. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 9(11), 22-28.
5. Bakhridinova, B. M. (2020). "DEVONU LUGOTIT TURK" AS A FIRST VIEW OF MODERN COMPLEX EDUCATIONAL DICTIONARIES. Theoretical & Applied Science, (4), 981-985.
6. Tolibjonovich, M. T. (2021). EASTERN RENAISSANCE AND ITS CULTURAL HERITAGE: THE VIEW OF FOREIGN RESEARCHERS. ResearchJet Journal of Analysis and Inventions, 2(05), 211-215.
7. Tolibjonovich, Madumarov T., and Gulomjonov O. R. Ogli. "Lombard Microcredit Organization Its Concept and Its Importance Today." *JournalNX*, vol. 6, no. 10, 2020, pp. 109-111.
8. Мадумарова Зиёдахон. (2022). ЯНГИЛАНАЁТГАН ЎЗБЕКИСТОНДА ГЕНДЕР МУАММОЛАРИНИ БАРТАРАФ ЭТИШДА АХЛОҚИЙ ҚАДРИЯТЛАРНИНГ ЎРНИ. <https://doi.org/10.5281/zenodo.6569712>
9. Nasriddinovich, A. A. (2020). THE FEATURES OF APPEARING FAMILY IN MODERN SOCIETY. European science review, (3-4), 69-72.
10. Jamoliddinovich, U. B. (2022). FUNDAMENTALS OF EDUCATION QUALITY IN HIGHER EDUCATION. INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429, 11(01), 149-151.